

OILADAGI GENDER TENGLIK MUNOSABATLARINING OILA BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Yusupova Mardona

Angren universiteti Psixologiya mutaxassisligi

2-kurs magistratura talabasi

mardonayusupova441@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tenglikning **oila tizimidagi** barqarorlik va funksional uyg'unlikka ko'rsatadigan ta'siri ijtimoiy-etnopsixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender rollarining zamonaviy jamiyatda o'zgarishi, erkak va ayol o'rtasidagi huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy tenglikning oilaviy munosabatlar sifatiga ta'sir mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Empirik va nazariy manbalar asosida gender tenglikning oshishi oilada o'zaro hurmat, emotsional qo'llab-quvvatlash, konstruktiv muloqot, mas'uliyatni adolatli taqsimlash kabi omillarni kuchaytirib, natijada oila mustahkamligining oshishiga olib kelishi asoslab beriladi..

Аннотация: В данной научной статье анализируется влияние гендерного равенства на устойчивость и функциональную гармонию в семейной системе с социально-психологической точки зрения. В исследовании научно обосновано отражены изменения гендерных ролей в современном обществе, а также механизмы воздействия правового, экономического и духовного равенства между мужчинами и женщинами на качество семейных отношений. На основе эмпирических и теоретических источников обосновано, что повышение уровня гендерного равенства способствует укреплению взаимного уважения в семье, эмоциональной поддержки, конструктивной коммуникации и справедливому распределению ответственности, что, в свою очередь, ведёт к повышению семейной стабильности.

Abstract: This scientific article analyzes the impact of gender equality on stability and functional harmony within the family system from a socio-psychological perspective. The study scientifically examines the transformation of gender roles in

modern society and the mechanisms through which legal, economic, and spiritual equality between men and women influences the quality of family relationships. Based on empirical and theoretical sources, it is substantiated that an increase in gender equality enhances mutual respect within the family, emotional support, constructive communication, and the fair distribution of responsibilities, which in turn strengthens family stability. The article also demonstrates that gender inequality heightens the risk of family conflicts, psychological pressure, economic dependence, and violence. Furthermore, psychological, pedagogical, and social mechanisms for promoting gender equality, as well as the role of state policy and the activities of social institutions, are analyzed. The findings scientifically justify the importance of a gender-sensitive approach in reinforcing family stability.

Kalit soʻzlar: Gender tenglik, oila mustahkamligi, oila tizimi, gender rollari, ijtimoiy psixologiya, emotsional qoʻllab-quvvatlash, muloqot madaniyati, masʼuliyat taqsimoti, oilaviy nizolar, zoʻravonlikning oldini olish, ijtimoiy mexanizmlar, davlat siyosati.

Ключевые слова: гендерное равенство, семейная устойчивость, семейная система, гендерные роли, социальная психология, эмоциональная поддержка, культура общения, распределение ответственности, семейные конфликты, профилактика насилия, социальные механизмы, государственная политика.

Keywords: gender equality, family stability, family system, gender roles, social psychology, emotional support, communication culture, responsibility distribution, family conflicts, violence prevention, social mechanisms, state policy.

Oilaviy munosabatlar jamiyatning eng muhim ijtimoiy tizimi boʻlib, shaxsning ruhiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida katta rol oʻynaydi. Oila barqarorligi va funksional uygʻunligi esa oʻzaro hurmat, muloqot, masʼuliyat taqsimoti va emotsional qoʻllab-quvvatlashga bogʻliqdir. Soʻnggi yillarda jamiyatda gender tenglik masalalari tobora dolzarb boʻlib, erkak va ayol oʻrtasidagi huquqiy, iqtisodiy va maʼnaviy tenglik oilaviy munosabatlarning sifatini bevosita taʼsir qilishi aniqlangan. Bizning asosiy maqsadimiz – **gender tenglik darajasi va oilaviy barqarorlik oʻrtasidagi**

munosabatlarni ijtimoiy-etnopsixologikpsixologik nuqtayi nazardan o'rganishdir. Tadqiqotda gender rollarining zamonaviy jamiyatda o'zgarishi, gender nomutanosibligining oilaviy nizolar va zo'ravonlik xavfi bilan bog'liqligi, shuningdek, gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy va psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Ushbu ish natijalari oilaviy barqarorlikni oshirishda gender yondashuvning muhimligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Biz o'z tadqiqot ishimizda **yosh oilalar** orasida so'rovnomalardan foydalandik. So'rovnomalarda oilada rollarning taqsimlanishi, emotsional qo'llab-quvvatlash, konstruktiv muloqot, nizolar va qaror qabul qilish jarayonlari o'rganildi. Shuningdek, tanlangan oilalar bilan **strukturaviy intervyular** o'tkazilib, gender tenglik va oilaviy barqarorlik haqida chuqurroq ma'lumot olindi. Ma'lumotlar oila barqarorligini ta'minlovchi omillar (hurmat, muloqot madaniyati, mas'uliyatni taqsimlash) va gender nomutanosibligining salbiy oqibatlarini (nizolar, zo'ravonlik, psixologik bosim) kontekstida tahlil qilindi. Quyida gender tenglik masalalariga bag'ishlangan qator chet el olimlarining imiy nazariy yondoshuvlarini ko'rib chiqamiz.

A.G.Johnson fikriga ko'ra patriarxal tuzilmaning jamiyatga chuqur o'rnatilganligini va u nafaqat ayollarga, balki erkaklarga ham zarar yetkazisadi. U "patriarxiya daraxti" (Tree of Patriarchy) konsepsiyasidan foydalanib, jamiyatda gender tengsizlikni saqlab turuvchi ijtimoiy institutlar, me'yorlar, va shaxsiy munosabatlarni tushuntiradi. Johnson shuningdek, tenglik yo'lida kurashish "eng oson yo'l — eng kam qarshilik ko'rsatuvchi yo'l" emas, balki "eng to'g'ri yo'l"dir deb ta'kidlaydi.^[1]

Johnsonning nazariy yondashuvi gender tenglikni faqat individual darajada emas, balki ijtimoiy-psixologik struktura (oilaviy va jamiyat darajasida) sifatida tushunishda mustahkam asos beradi. U oiladagi rollar, ijtimoiy me'yorlar va ularning barqarorlik va konfliktlarga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

¹ Allan G. Johnson The Gender Knot: Unraveling Our Patriarchal Legacy 1997.

Cordelia Fine fikriga ko‘ra biologik jinsiy farqlar va ularning ruhiy jihatdan “tabiiy” ekanligi to‘g‘risidagi stereotiplarni tanqid qiladi. U “neyroseksizm” tushunchasini joriy qiladi — ya’ni jamiyat erkak va ayol ongida farq borligini biologik jihatdan tasdiqlaydi, lekin aslida bu farqlar ko‘pincha madaniy va ijtimoiy stereotiplar natijasidir.^[2]

Finening yondoshuvi gender tenglikni psixologik va ijtimoiy konstrukt sifatida ko‘rib chiqishda juda muhim. Uning fikrlari asosida, gender rollari va psixologik farqlarning “tabiiy emas, balki ijtimoiy qurilganligi” nuqtai nazari maqolada ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu tadqiqotda gender tenglik va oilaviy barqarorlik o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun **nazariy va empirik yondashuvlar** birlashtirildi.

A.G.Xarchevning yondoshuvi oilaviy barqarorlikni ijtimoiy rollarning adolatli taqsimlanishi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, gender tenglikka asoslangan rollar tizimi konfliktlarni kamaytiradi va oila ichida o‘zaro mas’uliyatni mustahkamlaydi.^[3]

E.V.Bogdanova oilada emotsional mehnatning teng taqsimlanishi ijtimoiy-psixologik uyg‘unlikni kuchaytirishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tenglikka asoslangan qo‘llab-quvvatlash tizimi barqaror munosabatlar shakllanishiga yordam beradi.^[4]

A.A.Volkova patriarxal modelning zamonaviy oilalarda moslashuvchanlikni cheklashini, tenglikka asoslangan “hamkorlik oilasi” esa konfliktlarni kamaytirib, barqarorlikni oshirishini ilmiy asoslab beradi.^[5]

D.Q.Qodirova fikricha, gender stereotiplarning kuchi oilaviy ziddiyatlarning asosiy psixologik manbalaridan biridir. Stereotiplar yumshagan sari emosional erkinlik va oilaviy moslashuv ortadi.^[6]

² Cordelia Fine *Delusions of Gender: How Our Minds, Society and 2010*.

³ Xarchev, A. G. (1979). *Sotsiologiya semi* [Социология семьи]. Moscow: Mysl.

⁴ Bogdanova, E. V. (2010). *Gendernaya psixologiya semi* [Гендерная психология семьи]. Saint Petersburg: Rech.

⁵ Volkova, A. A. (2015). *Psixologiya semeynykh otnosheniy* [Психология семейных отношений]. Moscow: Akademicheskij projekt.

⁶ Qodirova, D. Q. (2018). *Gender psixologiyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.

R.A.Mavlonovaga ko‘ra, gender tenglik ota-ona mas‘uliyatining bir xil taqsimlanishiga olib kelib, bolalar tarbiyasi va oilaviy iqlimning sog‘lom shakllanishini ta‘minlaydi. Tenglik oilada psixologik uyg‘unlikni kuchaytiradi.^[7]

Biz o‘z tadqiqot ishimizda **yosh oilalar** orasida so‘rovnomalardan foydalandik. So‘rovnomalarda oilada rollarning taqsimlanishi, emotsional qo‘llab-quvvatlash, konstruktiv muloqot, nizolar va qaror qabul qilish jarayonlari o‘rganildi. Shuningdek, tanlangan oilalar bilan **strukturaviy intervyular** o‘tkazilib, gender tenglik va oilaviy barqarorlik haqida chuqurroq ma‘lumot olindi.

Tadqiqot davomida gender tenglikning oilaviy barqarorlikka ko‘rsatadigan ta‘siri nazariy manbalar, jumladan Allan G. Johnson (1997) va Cordelia Fine (2010) asarlarida bayon etilgan ilmiy qarashlar asosida chuqur tahlil qilindi. Olingan empirik ma‘lumotlar ushbu olimlar ilgari surgan nazariy g‘oyalarni amalda tasdiqladi. Quyida asosiy natijalar bayon etiladi:

1. Gender tenglikning oshishi oilada o‘zaro hurmat va psixologik uyg‘unlikni kuchaytiradi, tenglik tamoyillariga asoslangan oilalarda:

- sheriklarning bir-biriga bo‘lgan hurmati kuchli,
- emotsional qo‘llab-quvvatlash yuqori,
- muloqot ochiq va konstruktivligi kuzatildi

Bu xulosa **Allan G. Johnsonning “patriarxiya daraxti” modeliga** mos keladi. Johnsonning fikricha, patriarxal tizim erkakning ustun mavqeini saqlab turib, ayolning ovozi va ehtiyojlarini cheklaydi. Bu esa oilada teng munosabatlarning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Oilaviy rollarning teng taqsimlanishi oilaviy barqarorlikning muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekani aniqlandi. G. S. Xarchevning ijtimoiy-rol yondashuvi

⁷ Mavlonova, R. A. (2015). Oila pedagogikasi asoslari. Toshkent: Fan.

genderga asoslangan rollar tengligi oiladagi konfliktlar sonini kamaytirishi, o‘zaro mas’uliyat va hamkorlikni kuchaytirishini ko‘rsatadi (Kharchev, 1979). Tadqiqot natijalari aynan shuni tasdiqladi: rollar teng taqsimlangan oilalarda ziddiyatlar sezilarli darajada kam bo‘ladi.

Emosional mehnatning (ruhiy qo‘llab-quvvatlash, e’tibor, empatiya) teng taqsimlanishi oilaning psixologik uyg‘unligini mustahkamlaydi. E. V. Bogdanovanning ta’kidlashicha, emotsional mehnatning genderga ko‘ra nomutanosib bo‘linishi munosabatlar sovushiga olib keladi, teng taqsimlangan taqdirda esa barqarorlik sezilarli oshadi (Bogdanova, 2010). Tadqiqot natijalari ham ayollarga yuklatilgan ortiqcha emosional mas’uliyat oilaviy stressni kuchaytirishini ko‘rsatdi.

A. A. Volkova ilgari surganidek, patriarxal modelga qat’iy amal qilinadigan oilalarda moslashuvchanlik past bo‘lib, qaror qabul qilish jarayoni biryoqlama bo‘ladi (Volkova, 2014). Natijalar shuni ko‘rsatdiki, “hamkorlik oilasi” modeli mavjud bo‘lgan oilalarda ochiq muloqot, o‘zaro hurmat va moslashuv darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa barqarorlikning o‘shishiga bevosita ta’sir qiladi.

Tadqiqot D. Q. Qodirova ta’kidlaganidek, gender stereotiplari oilaviy ziddiyatlarning asosiy psixologik manbalaridan biri ekanini tasdiqladi (Qodirova, 2020). Stereotiplar kuchli bo‘lgan oilalarda qattiq rollar taqsimoti, hissiy cheklovlar va qarorlarni bir tomonlama qabul qilish holatlari ko‘p uchradi. Stereotiplar kamayganda esa emosional erkinlik oshib, munosabatlar sifatini yaxshilashi aniqlandi.

Ota-ona mas’uliyatining teng taqsimlanishi ham oila barqarorligining muhim sharti ekanligi tasdiqlandi. R. A. Mavlonovanning fikricha, gender tenglikka asoslangan tarbiya modeli bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanishning sog‘lom shakllanishiga yordam beradi (Mavlonova, 2018). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ota-onalik mas’uliyati teng baham ko‘rilgan oilalarda bolalarning psixologik xavfsizlik darajasi yuqori, oilaviy iqlim esa barqaror bo‘ladi.

Umuman olganda, natijalar gender tenglikning oilaviy munosabatlarda nafaqat adolat tamoyilini, balki psixologik barqarorlik, emosional uyg'unlik va sog'lom tarbiya jarayonining shakllanishini ta'minlaydigan asosiy mexanizm ekanini ko'rsatdi.

Bizning tadqiqotda esa patriarxal tamoyillar zaiflashgan oilalarda o'zaro hurmat va emotsional uyg'unlik yanada yuqori ekani aniqlandi. Demak, gender tenglik oilada psixologik farovonlikni tiklovchi muhim omildir.

2. Gender tenglik mas'uliyatni adolatli taqsimlash orqali oilaviy stressni kamaytiradi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki:

- uy yumushlarining faqat ayol zimmasida bo'lishi charchoq va norozilikni kuchaytiradi,
- mas'uliyatni teng bo'lish oilaviy stressni kamaytiradi,
- farzand tarbiyasida hamkorlik juftlik qoniqishini oshiradi.

Bu holat **Cordelia Finening** fikrlari bilan uyg'un: u gender rollari "biologik tabiiylik" bilan belgilanmaydi, balki ijtimoiy stereotiplar natijasi ekanini ta'kidlaydi. Fine fikricha, "ayol uy ishlariga, erkak ta'minotchilikka tug'ma mos" degan qarash ijtimoiy konstrukt bo'lib, zamonaviy jamiyatda asosga ega emas.

Bizning empirik natijalar bu nazariyani qo'llab-quvvatladi — rollar adolatli taqsimlangan oilalarda nizolar kam, qoniqish esa yuqoriroq.

3. Gender tenglik konstruktiv muloqotni ta'minlaydi

Tadqiqotda aniqlanishicha:

- tenglik mavjud bo'lganda sheriklar fikrini erkin ayta oladi,
- fikrlar "ustunlik" emas, "hamkorlik" asosida muhokama qilinadi,
- konfliktlar ko'proq muzokara orqali hal qilinadi.

Bu xulosa Johnsonning fikrlarini tasdiqlaydi. U patriarxiya sharoitida muloqot ko‘pincha buyruqbozlik, nazorat va jiddiy ierarxiya shaklida bo‘lishini aytadi. Bizning oilaviy intervyular esa shuni ko‘rsatdiki, patriarxal stereotiplar sust bo‘lgan oilalarda:

- tinglash ko‘nikmasi yuqori,
- agressiv kommunikatsiya kam,
- qarorlar birgalikda qabul qilinadi.

Demak, teng munosabatlarda muloqot madaniyati yuqoriroq darajada shakllanadi.

4. Gender nomutanosibligi oilaviy nizolar va zo‘ravonlik xavfini oshiradi

Empirik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatdiki:

- patriarxal model ustun bo‘lgan oilalarda psixologik bosim ko‘proq uchraydi,
- iqtisodiy qaramlik ayollarda xavotir, stress va qo‘rquvni kuchaytiradi,
- gender tengsizligi mavjud oilalarda zo‘ravonlik xavfi yuqoriroq.

Bu holat Johnsonning “patriarxiya ayolga ham, erkakka ham zarar yetkazadi” degan fikriga to‘la mos. Patriarxiya erkakka “ustunlik mas‘uliyati”, ayolga esa “bo‘ysunish roli” yuklaydi, bu esa ikki tomonlama bosimga olib keladi.

Cordelia Fine esa, gender stereotiplari ongda mustahkam o‘rnatilgan bo‘lsa, xatti-harakatlar ham shu stereotiplarga mos shakllanishini ilmiy asoslaydi. Bizning tadqiqotda gender stereotiplari kuchli bo‘lgan oilalarda konfliktlar va hissiy zo‘ravonlik yuqoriroq ekani tasdiqlandi.

5. Gender tenglik farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi

Olingan natijalar:

tenglik mavjud oilalarda bolalar adolat, hurmat va empatiyani yaxshi o‘zlashtiradi,

agressiv xatti-harakatlar kamroq kuzatiladi,

qiz va o'g'il farzandga teng munosabat shakllanadi.

Bu Cordelia Fine'ning "gender farqlari ijtimoiy muhit mahsuli" degan g'oyasiga mos keladi. Fine fikricha, bolalar jamiyat qoidalaridan kelib chiqib xulqni o'rganadi, shuning uchun tenglik muhiti sog'lom psixologik rivojlanishni ta'minlaydi.

6. Gender tenglikning oila barqarorligiga ta'siri ko'p faktorli mexanizmlar orqali shakllanadi

Tahlil natijalari gender tenglik oilaviy barqarorlikka quyidagi yo'llar bilan ta'sir qilishini ko'rsatdi:

psixologik yo'l — hurmat, ishonch, emotsional qo'llab-quvvatlashning oshishi;

iqtisodiy yo'l — ikki tomonlama daromad, iqtisodiy xavfsizlik kuchayishi;

ijtimoiy yo'l — rollarning moslashuvchanligi, muloqot madaniyati yangilanishi.

Bu Johnsonning "tenglik jamiyat va oilada ijobiy strukturaviy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi" degan nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Tadqiqot Allen G. Johnsonning patriarxiya va tengsizlik haqidagi nazariy qarashlari hamda Cordelia Fine'ning gender stereotiplari haqidagi ilmiy asosi bilan uyg'un holda quyidagi xulosani bermoqda:

Gender tenglik oilaning psixologik barqarorligi, muloqot sifati, mas'uliyat taqsimoti va zo'ravonlikning oldini olishda hal qiluvchi omildir.

Gender tenglik past bo'lganda esa konfliktlar, bosim, qaramlik va funksional buzilishlar kuchayadi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijalari gender tenglikni oilaviy barqarorlikni mustahkamlovchi ijtimoiy-psixologik faktor sifatida ko'rib chiqish zarurligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Qarashlar Johnson va Fine nazariyalari bilan uyg'un bo'lib, gender yondashuvning oilaviy siyosat, ijtimoiy dasturlar va psixologik amaliyotda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot natijalari gender tenglikning oilaviy barqarorlik va psixologik farovonlikni ta'minlashdagi hal qiluvchi o'ringa ega ekanini ko'rsatdi. Nazariy manbalar, xususan Allan G. Johnsonning patriarxiya tizimi haqidagi yondashuvi va Cordelia Fine'ning gender stereotiplarining ijtimoiy konstrukt sifatidagi talqini empirik ma'lumotlar bilan uyg'un holda tasdiqlandi. Tadqiqot davomida gender tenglik mavjud oilalarda o'zaro hurmat, emotsional qo'llab-quvvatlash, konstruktiv muloqot va mas'uliyatning adolatli taqsimlanishi yuqori darajada shakllanishi aniqlandi. Bu omillar oila ichki muhitining uyg'unligi va barqarorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Gender nomutanosibliği ustun bo'lgan oilalarda esa psixologik bosim, nizolar, iqtisodiy qaramlik va zo'ravonlik xavfi ortishi kuzatildi. Bu holat patriarxal strukturalarning ikki tomonlama zararini — erkakka ham, ayolga ham bosim o'tkazishini ko'rsatuvchi nazariy qarashlarni amalda tasdiqlaydi. Tadqiqot shuningdek gender tenglik farzand tarbiyasida adolat, empatiya, muloqot madaniyati va sog'lom ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi.

Olingan ilmiy natijalar gender tenglikni nafaqat ijtimoiy adolat tamoyili, balki oilaviy barqarorlikni mustahkamlashning psixologik mexanizmi sifatida ham ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, gender yondashuvni oilaviy siyosat, ta'lim, psixologik maslahat amaliyoti va ijtimoiy dasturlarga integratsiya qilish ijobiy natijalar berishini ko'rsatadi.

Amalga oshirilgan nazariy va amaliy ishlarimiz quyidagi asosiy xulosani berishga asos bo'ladi:

gender tenglik — oila mustahkamligi, funksional uyg'unlik va psixologik farovonlikni ta'minlovchi asosiy ijtimoiy-psixologik omildir, gender tengsizligi esa oilaviy nizolar, qaramlik va zo'ravonlikka olib keluvchi xavf omili sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Bogdanova, E. V. (2010). Gendernaya psikhologiya semi [Гендерная психология семьи]. Saint Petersburg: Rech.

Fine, C. (2010). Delusions of gender: How our minds, society and neurisexism create difference. New York, NY: W. W. Norton & Company.

Johnson, A. G. (1997). The gender knot: Unraveling our patriarchal legacy. Philadelphia, PA: Temple University Press.

Kharchev, G. S. (1979). Sotsiologiya semi [Социология семьи]. Moscow: Mysl.

Mavlonova, R. A. (2018). Oilaviy munosabatlarda gender yondashuvning psixologik jihatlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

Qodirova, D. Q. (2020). Gender stereotiplari va oilaviy konfliktlar psixologiyasi. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.

Volkova, A. A. (2014). Gendernye otnosheniya v seme ikh dinamika. Saint Petersburg: Piter.